TASDIQLAYMAN:

"UMS" MChJ ma'muriy direktori

_____ M.R. Kamalidinov

(imzo) *Ismi sharifi, familiyasi*

2026-yil "12" 02

Andijon, Namangan, Farg'ona, Guliston, Jizzax, Samarqand, Qarshi, Shahrisabz, Termiz, Navoiy, Buxoro, Urganch shaharlari va viloyatlarida hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida maxsus maqsadli texnika (vilkali avtoyuklagich, avtokranlar, avtovishkalar, Mobil liftlar) yordamida yuk ortish-tushirish xizmatlarini ko'rsatish uchun

TEXNIK TOPSHIRIQ

Toshkent shahri
2026-yil

Оглавление

1. Umumiy qoidalar va talablar 3

2. Maxsus texnikaga qo'yiladigan talablar 3

3. Yuklar tavsifi, quyidagilarni o'z ichiga oladi, ammo ular bilan cheklanmaydi: 3

4. Mehnat muhofazasi va xavfsizlik talablari 4

5. Texnik ma'lumotlarni taqdim etish shakli 4

1-jadval. 4

2-jadval. 4

1. Umumiy qoidalar va talablar

Maxsus maqsadli texnika yordamida xizmat ko'rsatuvchi Buyurtmachi ko'rsatgan joyda va vaqtda Buyurtmanomaga muvofiq yuklarni tushirish va ortishni ta'minlashi lozim:

1.1 Xizmatlar ko'rsatish uchun buyurtma Buyurtmanoma asosida amalga oshiriladi. Buyurtmanoma xizmat ko'rsatuvchiga elektron pochta yoki faks orqali, tegishli ishlar bajarilishidan kamida 24 soat oldin yuborilishi kerak. Xizmat ko'rsatuvchi va Buyurtmachi buyurtmanoma shaklini kelishib oladilar, uning namunasi shartnomaning ajralmas qismi bo'lishi lozim.

1.2 Buyurtmachining buyurtmanomasini olgandan so'ng, Xizmat ko'rsatuvchi buyurtmanomada belgilangan muddatda Buyurtmachiga ko'rsatilgan joyga va vaqtga maxsus maqsadli tegishli texnikani yetkazib beradi.

1.3 Xizmat ko'rsatuvchi tomonidan kelishilgan buyurtmada belgilangan vaqtdan 1 soatdan ortiq kechikib xizmat ko'rsatish kechikish deb hisoblanadi.

1.4 Xizmat ko'rsatuvchi tomonidan amalga oshiriladigan xizmatlar Buyurtmachining mol-mulkini saqlash uchun to'liq javobgarlikni o'z zimmasiga olgan holda bajariladi. Mol-mulkning qiymati tovar-transport yoki boshqa ilova hujjatlarida ko'rsatiladi.

2. Maxsus texnikaga qo'yiladigan talablar

Yuklash va tushirish ishlariga faqat belgilangan tartibda texnik ko'rikdan o'tgan, tashqi ko'rinishi qoniqarli bo'lgan soz transport vositalari qo'yiladi. Taqdim etilayotgan ishlarda kamida 1 yillik ish tajribasi talab etiladi.

2.1. Vilkali avtoyuklagich

Benzinli yoki dizel dvigatellik, yuk ko'tarish qobiliyati 3 tonnagacha, nominal ko'tarish balandligi 3,3 metrgacha. Turli yuklash-tushirish ishlarini bajarish, yuklarni ko'chirish va boshqa maxsus ishlarni amalga oshirish uchun mo'ljallangan. Haydovchi bilan birga taqdim etiladi.

2.2. Avtokran

2.2.1. Strela uzunligi 20 metrgacha bo'lgan avtokran, ko'tarishning ishchi balandligi 18 metr
2.2.2. Strela uzunligi 30 metrgacha bo'lgan avtokran, ko'tarishning ishchi balandligi 27 metr
2.2.3. Strela uzunligi 50 metrgacha bo'lgan avtokran, ko'tarishning ishchi balandligi 37 metr
2.2.4. Strela uzunligi 60 metrgacha bo'lgan avtokran, ko'tarishning ishchi balandligi 50 metr

Yuklash-tushirish ishlari uchun mo'ljallangan. Haydovchi va yuklash bo'yicha mutaxassislar bilan birga taqdim etiladi.

2.3. Avtovishka

2.2.1 Savat (lyulka) ning yuk ko'tarish qobiliyati 200 kilogrammgacha, savat asosining balandligi 20 metrgacha, ko'tarishning ishchi balandligi 20 metr.

2.2.2 Savat (lyulka) ning yuk ko'tarish qobiliyati 200 kilogrammgacha, savat asosining balandligi 30 metrgacha, ko'tarishning ishchi balandligi 30 metr.

2.4. Mobil lift

2.3.1 Savat (lyulka)ning yuk ko'tarish qobiliyati 300 kg gacha, savat asosining balandligi 45 m gacha, ishchi ko'tarish balandligi 45 m.

3. Yuklar tavsifi, quyidagilarni o'z ichiga oladi, ammo ular bilan cheklanmaydi:

- Telekommunikatsiya uskunalari (baza stansiyalari, kontrollerlar, transkoderlar, kommutatorlar, uzluksiz ta'minot manbalari, akkumulyatorlar, baza stansiyalari antennalari, RRL antennalari, telekommunikatsiya stoykalari, RRL bloklari, yuqori chastotali va optik kabellar)
- Asbob-uskunalar va qurilmalar
- Turli xildagi metall konstruksiyalar
- 20, 40 futli konteynerlar
- Konteyner ko'rinishidagi apparat xonalari
- Konditsionerlar
- Dizel-generator qurilmalari

- Reklama, marketing uskunalari va suvenir mahsulotlari
- Abonent uskunalari
- Qadoqlanmagan holda demontaj qilingan uskunalar
- Kanselyariya va maishiy tovarlar

4. Mehnat muhofazasi va xavfsizlik talablari

Ijrochi quyidagilarga rioya qilishi shart:

4.1. Shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish;
4.2. Yo'riqnomalar o'tkazish;
4.3. Texnik foydalanish qoidalari;
4.4. Yong'in xavfsizligi qoidalari;

5. Texnik ma'lumotlarni taqdim etish shakli

1-jadval.

Maxsus texnika mavjudligi

T/r	Transport vositasi turi	Soni	Minimal buyurtma vaqti
1.	**Vilkali avtoyuklagich**		
	Yuk ko'tarish qobiliyati 3 tonnagacha		
2.	**Avtokran**		
	strelaning uzunligi 20 m gacha		
	strelaning uzunligi 30 m gacha		
	strelaning uzunligi 50 m gacha		
	strelaning uzunligi 60 m gacha		
3.	**Avtovishka**		
	ko'tarish balandligi 20 m gacha		
	ko'tarish balandligi 30 m gacha		
4.	**Mobil lift**		
	ko'tarish balandligi 45 m		

2-jadval.

Maxsus texnika turlari va ularning xususiyatlari

		Model	Ishlab chiqarilgan yili	Yuk ko'tarish qobiliyati	Ko'tarish balandligi
1.	**Vilkali avtoyuklagich**				
2.	**Avtokran**				
2.	**Avtovishka**				
3.	**Mobil lift**				

Tuzuvchi:

Transport va ombor logistikasi guruhi katta mutaxassisi _____ imzo *M.Sh. Muhammadsiddikov*

Kelishildi:

Transport va ombor logistikasi guruhi rahbari _____ imzo *I.Y. Xonazarov*